

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI FAOLIYATI

**Xasanov S.M**

*O'zbekiston Respublikasi*

*Ichki Ishlar vazirligi Akademiyasi*

*"Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati"  
mutaxasisligi 3-o 'quv kursi 306-guruh kursanti*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqbazarliklar profilaktikasi sohasi, uning nima ekanligi, huquqiy asosi, huquqbazarliklar profilaktikasining turlari, uni bevosita amalga oshiruvchi organlar, bu sohadagi islohotlar va sohani rivojlantirishga oid takliflar keltirib o'tilgan.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье упоминается сфера профилактики преступности в Республике Узбекистан, что это такое, ее правовая основа, виды профилактики преступности, органы, непосредственно осуществляющие ее, реформы в этой сфере и предложения по развитию сферы.

### **ANNOTATION**

In the article, the field of crime prevention in the Republic of Uzbekistan, what it is, its legal basis, types of crime prevention, bodies that directly implement it, reforms in this field and proposals for the development of the field are mentioned.

**Kalit so'zlar:** huquqbazarliklar profilaktikasi, huquqiy asos, profilaktika turlari, huquqbuzrliliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar, islohotlar, profilaktika inspektori, takliflar.

Har bir davlat bor ekanki, o'z huquq tizimi va qonunlari mavjud. Barcha fuqarolar belgilangan qonunlarga birdek amal qilishi va boshqalarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Bu davlatning rivoji va tinchligi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qonundan chetga chiqish esa huquqbazarlikni keltirib chiqaradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan huquqbazarlikka qarshi kurashishadi: aybdorni topishadi, so'roq qilishadi, sabablarni aniqlashadi va hokazo. Buning uchun ko'p mablag' va ishchi kuchi kerak bo'ladi. Shu sabab huquqbazarlik sodir bo'lishidan avval uni oldini olgan ma'qul. Bunday holatda huquqbazarliklar profilaktikasi sohasi bizga yordamga keladi. **Xo'sh huquqbazarliklar profilaktikasi o'zi nima degani?**

Bunda profilaktika so'ziga e'tibor berish lozim. Profilaktika so'zi lotincha so'z bo'lib ma'nosi "oldini oluvchi", "saqlovchi" degan ma'nolarni anglatadi. Bundan kelib

chiqadiki, huquqbazarliklar profilaktikasi deganda huquqbazarliklarni oldini olish tushuniladi. Yanada aniq huquqiy javob “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida keltirib o‘tilgan: “Huquqbazarliklar profilaktikasi — huquqtartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbazarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbazarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi”.

### **Huquqbazarliklar profilaktikasining huquqiy asosi haqida.**

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng huquqbazarliklar sohasini amalga oshirishga oid, yanada takomillashtirishga oid juda ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilingan. Ammo, 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun bu sohada haqiqiy tub buriish bo‘lib xizmat qildi. Chunki shu sanaga qadar huquqbazarliklar profilaktikasi sohasini tartibga soluvchi yagona rahbariy qonun hujjati yo‘q edi. Bu qonunda ilk bora huquqbazarliklar profilaktikasi nima ekanligi, uning prinsiplari, turlari, huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan.

### **Huquqbazarliklar profilaktikasining qanday turlari mavjud?**

“Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda huquqbazarliklar profilaktikasining quyidagi turlari ko‘rsatib o‘tilgan:

- huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasi;
- huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasi;
- huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi; - huquqbazarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning huquqbazarliklarning oldini olish, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarini aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyati huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasi hisoblanadi. Bunda kam mablag‘ va ishchi kuchini jalb etgan holda ko‘proq natijaga erishish ko‘zda tutiladi. Masalan, televideniya, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoki davra suhbatlari va hokazolar orqali profilaktik ogahlantiruvlar e’lon qilish.

Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagи huquqbazarliklar profilaktikasiga, bu turdagи huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasidir. Ayrim

toifadagi yoki mavsumiy huquqbazarliklarga qarshi aynan maxsus profilaktika qo'llaniladi. Masalan, giyohvand moddalarga qarshi “Qoradori” maxsus profilaktik tadbiri, voyaga yetmaganlar toifasi uchun profilaktik tadbirlar va hokazo.

Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarining g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbazarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga doir faoliyati huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasidir. Huquqbazarliklar profilaktikasining bu turi shaxslar bilan individual tarzda ishlashni nazarda tutadi. Bunda shaxsning xulq-atvori, psixikasi va boshqa jihatlari hisobga olingan holda quyidagi chora-tadbirlar qo’llanishi mumkin: profilaktik suhbat, rasmiy ogohlantirish, majburiy davolanishga yuborish va hokazo.

Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbazarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo’llashga doir faoliyati huquqbazarliklarning viktimologik profilaktikasidir. Huquqbazarliklar profilaktikasining bu turi ma’lum bir toifadagi shaxslarning muayyan huquqbazarliklar oqibatida jabrlanuvchi bo‘lib qolishini oldini olishni nazarda tutadi.

### **Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar qaysilar ?**

Huquqbazarliklar profilaktikasini quyidagi organlar amalga oshiradi:

- ichki ishlar organlari;
- prokuratura organlari;
- Davlat xavfsizlik xizmati organlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- adliya organlari;
- davlat bojxona xizmati organlari;
- davlat soliq xizmati organlari;
- mehnat organlari;
- ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;
- davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi organlari va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan davlat organlarining huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishdagi vazifalari bir-biridan farq qilishi mumkin, ammo barchasining zamirida bir maqsad ya’ni huquqbazarliklarni oldini olish maqsadi mujassam.

Fikrimizcha, huquqbazarliklarni oldini olishga nafaqat sanab o‘tilgan organlar, balki xususiy korxona, tashkilot, muassasalar va fuqarolar ham birdek ma’suldirlar.

### **Bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar.**

So‘nggi yillarda bu sohaga qaratilayotgan e’tibor juda ham katta hisoblanib, davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki, yildan-yilga huquqbazarliklar soni ortib borayotgan edi. Bu holatda sohaga yanada bilimli, malakali va fidoiy kadrlar zarurligi ko‘rinib qoldi. shu maqsadda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bilamizki, sohaning asosiy ishchi kuchi profilaktika inspektorlari hisoblanadi. Ularning samarali ishlashi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda, oylik maoshlari oshirilmoqda, xizmat uylari berilmoqda. Buni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham quyidagi gaplari orqali ta’kidlab o‘tgan:

*“Profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, sodir etilgan har bir jinoyatni tahlil qilish, jinoyatchilikni professional darajada aniqlash lozim. Profilaktika inspektorlari xizmat uylari, imtiyozli kreditlar asosida mashinalar bilan ta’milnayotgani ular mahallaning har bir xonadoni bilan samarali ishlashida muhim ahamiyat kasb etmoqda”.*

Sohani yuridik kadrlar bilan taminlash uchun O’zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasida 2023-2024 o’quv yilidan boshlab qo’shimcha yana 200 abituryentlar “Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyat” yo’nalishiga qabul qilinishi belgilandi.

### **Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasini yanada rivojlantirish yo‘llari.**

Huquqbazarliklar profilaktikasini sohasini yanada takomillashtirishga oid quyidagi shaxsiy fikrlarni bayon etsak:

Birinchidan, sohada yuridik kadlar juda ham oz miqdorda. Shu sabab yuqoridaqidek huquqbazarliklar profilaktikasiga yuridik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini maqsadli ko‘paytirish lozim.

Ikkinchidan, profilaktika inspektorining ish yuklamasi va ish soatini qayta ko‘rib chiqish lozim. Bunda profilaktika inspektorlariga har qanday tegishli bo‘lmagan mansabdor shaxs yoki davlat organi tomonidan o‘z xizmat faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan vazifalar berilishini qat’iyan taqiqlash shart. Ish soati ko‘pligidan esa oilasi va boshqa ishlarga vaqt topa olmaydi. Bu haqida Shavkat Mirziyoyevning quyidagi jumlalarini keltirib o‘tish o‘rinli:

*“Qaysi hokim profilaktika inspektorini qabul qilib, gaplashdi? Uning bir kunlik ishini, oilaviy sharoitini o‘rgandi? Hamma “kattakon” uchastka noziriga buyruq beradi. U hamma narsa bilan shug‘ullanyapti, ko‘p vaqt yo‘qotyapti, asosiy ishi qolib ketyapti. O‘zi eng katta mehnatkash – profilaktika inspektori. Agar unga sharoit yaratsak, u davlatdan rozi bo‘lib ishlasa, ko‘p masalalar hal bo‘ladi”.*

Uchinchidan, aholining huquqiy ongini oshirishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish. Aholida huquqiy ong qanchalik kuchli bo‘lsa, huquqbazarliklarning sodir etilish darajasi ham o‘z-o‘zidan kamayadi.

To‘rtinchidan, sohaga faqatgina yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan nomzodlarni qabul qilish tizimini yo‘lga qo‘yish va ularning muomala madaniyatiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquqbazarliklar profilaktikasi sohasiga qaratilayotgan e’tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbazarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko‘satkichlar bundanda ijobiyroq ko‘rinishga keladi. Shu sabab sohaga e’tiborni bir zumga ham kamaytirmaslik lozim. Tinchlik bu buyuk ne’mat. Tinchlikni saqlovchilar esa bu ne’matning qanchalik muhim va totli ekanligini juda yaxshi bilishadi. Aholi ham bu ne’matning qanchalik muhim va kerak ekanligini anglab yetmoqda, shu sabab jamiyat, davlat rivojlanmoqda va yuksalmoqda.

#### REFERENCES

- [1] [“Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun](#) // 2014
- [2] [“Huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minalash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori](#) // 2019
- [3] [O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi](#) // 2021
- [4] Арипова, А. Х. (2021). Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита. *Scientific progress*, 1(6).
- [5] Абдузалилов, Д., & Арипова, А. (2021). КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ СОТРУДНИКОВ ОВД. *Scientific progress*, 2(1), 328-332.
- [6] Истамов, Н., Убайдуллаев, С., Махмудхужаев, Ж., & Бобохонов, Ш. (2021). ТУРИЗМ–КАК ВЕДУЩИЙ СЕКТОР МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE*, 2(4), 1-5.
- [7] Убайдуллаев, С., Арипова, А., & Истамов, Н. (2021). Туризм в Узбекистане. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE*, 2(4), 6-10.
- [8] Абдувалиев, Н., & Арипова, А. (2021). ВАЖНОСТЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ. *Scientific progress*, 2(1), 333-335.
- [9] Икрамова, Л., & Арипова, А. (2021). РОЛЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕСТУПНОСТИ. *Scientific progress*, 1(6), 476-479.

- [10] Саидалиев, С. С., & Арипова, А. Х. (2021). БОРЬБА С НАРКОТОРГОВЛЕЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ. *Scientific progress*, 2(1), 900-906.
- [11] Khasanovna, A. A., Sharafitdinovna, K. K., & Sharafitdinovna, K. N. (2022). THE ROLE OF COMMUNICATION CULTURE IN THE FIELD OF CRIME PREVENTION AND PUBLIC SAFETY. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 4(02), 31-37.